

# STARIA



# Koinot sari qadam.



Hamrohlar bilan muloqot qilishdan zavqlangan va bir umrga yodda qoladigan yorqin lahzalarni birgalikda boshdan kechirgan holda STARIAning revolyutsion salonida maksimal qulaylik bilan yangi sayohatga otlaning. Salonning kengligi turmush tarzi turlicha bo'lgan avtomobil sohiblari uchun cheksiz imkoniyatlarga to'la. STARIA - minivenlar kelajagi tomon ulkan siljishdir!





# Dizaynga yangi yondashuv.

O'tmishdan butunlay voz kechish va modelga mutlaqo yangi, zamonaviy qiyofa berish uchun STARIA dizaynerlari kuzovning faqat bitta egilgan joyini o'zgartirdilar. STARIAning futuristik soyasi yuqori texnologiyalarning sodda va nafisligini aks ettiradi, ular tufayli ushbu avtomobildagi sayohatlar har doimgidan ko'ra xavfsizroq va qulayroq bo'ladi. STARIA – bu nafaqat yangi dizayn nafosatidir: u hashamatli minivenlarni alohida avtomobillar sinfiga ajratib, ularga yangicha nazar bilan qarash imkonini beradi.





# Maksimal qulaylik.

Yangi STARIA maksimal qulaylik va shinamlik uchun yaratilgan: avtomobil sizni turli xil intellektual xususiyatlar bilan o'rab olgan holda o'z vazifasini a'lo darajada uddalaydi. Salonning surilma eshigi va yuk bo'linmasi eshigi siz avtomashinaga yaqinlashganingizda va salondan chiqayotganingizda avtomatik ravishda ochiladi va yopiladi. Oshirilgan siljish zaxirasiga ega bo'lgan suriladigan o'rindiqlar ichki kenglikni o'zgartirish imkonini berib, salonga qo'shimcha universallik baxsh etadi.



## Oshirilgan yurish zaxirasiga ega suriladigan o'rindiqlar

Orqa o'rindiqlarning old va orqa tomon yo'nalishidagi yurish zaxirasi oshirilgan bo'lib, u yuk uchun bo'sh kenglikni tez kengaytirish imkonini beradi, shuningdek yo'lovchilarning chiqishi va tushishini osonlashtiradi.



## Intellektual elektr uzatmali surilma eshik

Qo'l va tugmachalardan foydalanishni talab etmaydi. Intellektual eshik sizning hozir bo'lganingizni aniqlaydi va avtomatik ravishda ochiladi (agar sizning yoningizda smart-kalit bo'lsa).





Yuk bo'linmasining elektr uzatmali eshigi.

# STARIA

## Comfort/High-tech

STARIA Comfort/ STARIA High-tech-ning g'aroyib qiyofasi – bu hikoyaning faqatgina bir qismidir. Uning ikkinchi yarmi bilan tanishish uchun salon ichiga bir qadam tashlang: safarlar yanada qulayroq, xavfsizroq va zavqliroq bo'lishi uchun uning har bitta detali qayta ishlab chiqilgan.







# Alohida sinf ajratuvchi model.

STARIA ga birinchi qarashdanoq ushbu model o'z shaxsiy segmenti haqidagi tasavvurlarni butunlay o'zgartirishi ravshan bo'ladi. Va bu taqlid yoki o'zgartirish emas, balki haqiqatdan ham ruhlantirilgan dizayn natijasiga aylangan mutlaqo ajoyib g'oyadir. Keng ochiq salon ko'plab yuqori sifatli detallari bilan hayratga soladi, ular orasida raqamli asboblar kombinatsiyasi va nafis, ushlaganda yumshoq va ko'rinishi yoqimli bo'lgan materiallar ajralib turadi.

**Diod nurli chiroqlar**



**O'Ichamli pikseli fonarlar (diod nurli orqa fonarlar bloki)**







# 8 ta o'rin

Ushbu mukammal darajada puxta o'ylangan sakkiz o'rinlik avtomobil bo'shlig'ining har bir santimetridan maqbul tarzda foydalaniladi va bir maqsadga: haydovchi va yo'lovchilar o'zlarini xuddi o'z uylaridagidek his qilishlari uchun bo'ysundirilgan. Yanada xavfsizroq bo'lishi uchun sakkizta orinning barchasi boshqariladigan boshqo'ygichlar va uch nuqtali xavfsizlik kamarlari bilan jihozlangan.



## Panoramali oyna

Pastki bel chizig'i salon yorug'ligini yaxshilaydi va ochiqlik hissini yaratadi. Panoramali oynani qo'shing va yoningizdan g'izillab o'tib ketayotgan ajoyib manzaralardan zavqlaning.



## Katta ichki balandlikka ega keng salon

STARIA baland shifli hamda yengillik va ochiqlik hissini yaratuvchi o'rindiqlik yostiqlari ustidagi erkin bo'shlig'i bilan maqtansa arziydi. Ostonasining balandligi avtomobilga o'tirish qulay bo'lishi uchun pasaytirilgan.

# Kuchli va xavfsiz.

Sizning tanlovingizga benzinli dvigatel, 8 pog'onali avtomat uzatmalar qutisi taklif etiladi. Siz nimaga kelib to'xtasangiz ham, yangi STARIA quvvat qurilmalari yuqori samaradorlik bilan baland quvvatni va hissiyotlar toshqinini kafolatlaydi. Standart butlash jihozlari haydovchi va yo'lovchilarni himoya qilish uchun eng yangi texnologiyalarga asoslangan uch nuqtali xavfsizlik kamarlari, boshqo'ygichlar va xavfsizlik yostiqchalarini o'z ichiga oladi.

## Smartstream G3.5

249 maksimal  
o.k./6400 ayl/daq

33.8 maksimal aylantirish lahzasi, N-  
m./5000 ayl/daq

## 10.25 – LCD monitorli SuperVision asboblari paneli

Balandda joylashtirilgan yuqori ruxsatli 10,25 dyuymli displey ko'rinishni yaxshilash uchun qo'llaniladi va boshqarish rejimiga qarab uni avtomatik ravishda o'zgartirish funksiyasini ta'minlaydi.



## Uch nuqtali xavfsizlik kamarlari / 6 ta xavfsizlik yostiqchasi

Barcha o'rindiqlarning uch nuqtali xavfsizlik kamarlari va sozlanuvchi boshqo'ygichlari standart to'plamga kiritilgan. Birinchi qatordagi yo'lovchilar uchun passiv xavfsizlik tizimiga ikkita old va ikkita yon xavfsizlik yostiqchalari kiradi, ikkita katta xavfsizlik pardachalari esa orqa qator yo'lovchilarining himoyasini ta'minlaydi.

# STARIA Comfort/High-Tech



17 dyuymli  
yengil qotishmali disklar



18 dyuymli  
yengil qotishmali disklar



Galogenli faralar MFR  
(standart to'plamda)



Diod nurli LED faralar (variantli)



4,2 dyuymli diagonalga ega ekranli  
asboblar paneli (standart to'plamda)



10,25 dyuymli diagonalga ega ekranli  
asboblar paneli (variantli)



To'liq avtomatik sovitish tizimi



USB ulagichi barcha o'rindiqlarda



Shiftdagi yuk bo'linmasi



# Interyer ranglari



# Kuzov ranglari



Creamy white

Graphite gray metallic

Moonlight blue pearl

Abyss black pearl

Olivine gray metallic

# Tavsiflari

Tavsifi	STARIA/Comfort/High-Tech
	Smartstream G3.5
Dvigatel turi	Olti silindrli V-simon dvigatel
Ishchi hajmi (sm <sup>3</sup> )	3,470
Maksimal quvvati (o.k./ayl/daq)	240 / 6,400
Maksimal aylantirish lahzasi (N-m./ayl/daq) Uzatmalar qutisi	33.8 / 5,000
	8-pog'onali AKPP
Uzatma tizimi	2WD
Ilgak	
Old	Ko'ndalang barqarorlik stabilizatoriga ega Makferson turidagi mustaqil prujina
Orqa	Ko'p dastakli/ressorli ilgak (furgon)
Shinalar	215/65 R17, 235/55 R18

Gabarit o'lchamlari		STARIA Comfort/High-Tech 8 seats
O'rindiqdan shiftgacha bo'lgan balandlik (mm)	1-qator/2-qator/3-qator/4-qator	1,064 / 1,087 / 1,081
Oyoqlar uchun kenglik (mm)	1-qator/2-qator/3-qator/4-qator	1,027 / 1,062 / 1,010
Salonning yelka barobaridagi eni (mm)	1-qator/2-qator/3-qator/4-qator	1,831 / 1,781 / 1,645

- Ko'rsatilgan qiymatlar dastlabki baholash natijasida olingan va ular o'zgarishi mumkin.
- Ushbu katalogda taqdim etilgan uskunalarning bir qismi standart jihozlar ro'yxatiga kiritilmagan bo'lishi mumkin va, tegishligicha, alohida to'lov evaziga variant sifatida yetkazib beriladi. Hyundai Motor Company
- oldindan xabar bermagan holda texnik tavsiflari va butlanishini o'zgartirish huquqini o'zida olib qoladi.
- Nashr etishda uzatish imkoniyatlarining cheklanishi tufayli katalogda aks ettirilgan ranglar haqiqiydaridan sezilarsiz darajada farq qilishi mumkin.
- Mumkin bo'lgan ranglar va pardoz materiallari yuzasidan to'liq ma'lumot olish uchun o'z dileringizga murojaat qiling.



Umumiy kengligi  
Izining kengligi\* 1,997  
1,721



Umumiy kengligi  
G'ildirak bazasi 3,255  
3,273

1,990  
(Faqat furgon; 2,000)



Izining kengligi

O'lchov birligi: mm \* Izining kengligi \* 18 dyuymli g'ildirak diskleri (oldidan/orqasidan): 1721/1732 \*  
17 dyuymli g'ildirak diskleri (oldidan/orqasidan): 1732/1743 \* 17 dyuymli g'ildirak diskleri faqat furgon uchun (oldidan/orqasidan): 1732/1716 \*







# Bir oila - ko'p afzalliklar.



## Call center

### BARCHA HYUNDAI EGALARI UCHUN

1248 raqami bo'yicha mijozlarni qo'llab-quvvatlash xizmati bilan bog'lanish mumkin.



## Xizmat ko'rsatish

### SIZ HAQINGIZDA SHU YERDA VA HOZIR QAYG'URAMIZ!

Hyundai Auto Asia o'z mijozlariga yaqinroq bo'lishga intiladi. Aynan shuning uchun biz doimo sizning xavfsizligingiz haqida qayg'uramiz. Bizning Siz to'g'ringizda qayg'urishimiz - yo'llarda xavfsiz harakatlanishning garovidir. Before Service dasturi avtomobilni to'siqsiz va xavfsiz, eng muhimi, bepul kompleks profilaktik ko'rikdan o'tkazishni amalga oshirish imkonini beradi.



## Kafolat

### YANGI HYUNDAI AVTOMOBILIGA ISHLAB CHIQUYVCHINING KAFOLATI

Hyundai dileri tomonidan avtomobil birinchi xaridorga sotilgan (topshirgan) vaqtdan boshlab, Xizmat ko'rsatish kitobida qayd etilgan cheklovlarni hisobga olgan holda, ishlab chiqaruvchining kafolati 3 yil yoki 100.000 km ni (qaysi biri oldin yuz bersa) tashkil etadi, Xizmat ko'rsatish kitobidagi kafolat sanasi boshlanganligi to'g'risidagi belgi bundan dalolat beradi. Xizmat ko'rsatish kitobida ko'rsatilgan Hyundai avtomobili uchun kafolat shartlariga to'g'ri keladigan nosozlik yuzaga kelgan taqdirda, ishlab chiqaruvchining kafolati avtomobilni eng yaqindagi Hyundai rasmiy dileriga yetkazib berish (evakuatsiya qilish) uchun qo'llaniladi, faqat ushbu nosozlikning tabiati O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va Avtotransport vositasidan foydalanish bo'yicha qo'llanma talablari asosida avtomashinani mustaqil ravishda ta'mirlash joyiga yetkazib berish imkoniyatiga yo'l qo'ymasligi sharti bilan.



## Trade in

### TRADE-IN» FOYDALI DASTURI

Hyundai dilerlik markazlarida «Trade-in» dasturi amal qiladi. Hammasi juda oddiy: siz istalgan rusumdagi masofa bosib o'tgan eski avtomobilingizni yangi Hyundai'ga almashtiring. Tafsilotlarni Toshkent shahridagi barcha Hyundai dilerlik markazlaridan olish mumkin.

**„HYUNDAI AUTO ASIA“ MChJ QK**  
**HYUNDAI yengil avtomobillarining O‘zbekistondagi rasmiy distribyutori**  
www.hyundai.com  
Aloqa markazi 1248

**Hyundai Premium Sergeli**  
Tel.: +998 7812212 22  
O‘zbekiston, Toshkent sh., Sergeli tumani, Toshkent halqa avtomobil yo‘li, 68

**Hyundai Qushbegi**  
Tel.: +998 78122 07 77  
O‘zbekiston, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Kichik halqa yo‘li, 22 B

**Hyundai Tashkent Sity**  
Tel.: +998 78122 08 88  
O‘zbekiston, Toshkent sh., Shayxontohur tumani, Xadra ko‘chasi, 2/1  
«Tashkent city» Xalqaro ishbilarmonlik markazi

**Hyundai Yunusobod**  
Tel.: +998 71225 89 89  
O‘zbekiston, Toshkent sh., A.Temur shoh ko‘chasi,77a

Diler haqida ma‘lumot

**3** YIL  
KAFOLAT  
**100 000** km

Ushbu risola nashrga topshirish vaqtida to‘g‘ri bo‘lgan. Biroq, «HYUNDAI AUTO ASIA» MChJ QK uzluksiz ravishda mahsulotni takomillashtirish va yaxshilab borish siyosatiga amal qilishi sababli, u ushbu nashrda bayon etilgan modellarning spetsifikatsiyasi, ranglari va butlash elementlarini istalgan vaqtda qo‘shimcha ogohlantirishlarsiz o‘zgartirish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Modellarning rangi va butlanishini uyg‘unlashtirish faqat ular mavjud bo‘lgan taqdirda mumkin bo‘ladi. Dolzarb ma‘lumot olish uchun Hyundai rasmiy dilerlik markazlariga murojaat qiling.